

XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*







Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **23152** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **383** taga yoki **1,6 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **14,0** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar-iyunida **3 100** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,3 %** ga oshgan.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda




2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni jami **23 152** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **3 100** tani tashkil etdi. Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 253** tani yoki jamiga nisbatan **18,3 %**ni tashkil etdi.

1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*



2023- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **14,0** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yil 1- iyul holatiga nisbatan **0,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **28,2** birlik, Xiva shahrida **19,2** birlik, Yangibozor tumanida **12,6** birlik, Urganch tumanida **12,1** birlik, Urganch tumanida **12,1** birlikka yetdi.

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori
ko'rsatkich

Urganch shahri
– 28,2 birlik

O'rtacha
ko'rsatkich

Xiva tumani
– 10,6 birlik

Eng past
ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 6,7 birlik

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **28,2** birlik, Xiva shahrida **19,2** birlik, Yangibozor tumanida **12,6** birlik, Urganch tumanida **12,1** birlik, Yangiariq tumanida **11,7** birlik, Xiva tumanida **10,6** birlik, Tuproqqal'a tumanida **10,4** birlik, Gurlan tumanida **10,2** birlik, Qo'shko'pir tumanida **10,1** birlik kuzatildi.

2023- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Urganch
shahri
28,2

Xiva
shahri
19,2

Yangibozor
tumani
12,6

Urganch
tumani
12,1

Yangiariq
tumani
11,7

Xiva
tumani
10,6

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y. yanvar-iyun		2023- y. yanvar-iyun
384	Urganch sh.	374
202	Xiva sh.	183
249	Bog'ot	260
232	Gurlan	251
238	Qo'shkupir	288
302	Urganch	302
267	Hazorasp	221
78	Tupraqqal'a	86
221	Xonqa	166
213	Xiva	182
211	Shovot	365
189	Yangiariq	259
157	Yangibozor	163

2023- yilning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Urganch sh.	12,1
Shovot	11,8
Urganch	9,7
Qo'shkupir	9,3
Bog'ot	8,4
Yangiariq	8,4
Gurlan	8,1
Hazorasp	7,1
Xiva sh.	5,9
Xiva	5,9
Xonqa	5,3
Yangibozor	5,2
Tupraqqal'a	2,8


2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **12,1 %**, Shovot tumani – **11,8 %**, Urganch tumani – **9,7 %**, Qo'shko'pir tumani – **9,3 %**, Bog'ot tumani – **8,4 %**, Yangiariq tumani – **8,4 %**, Gurlan tumani – **8,1 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-2023- yil 1- iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2023- yil 1- iyul holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **1 386** ta, sanoatda **526** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **308** ta yangidan tashkil etilgan.


Tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (**374** ta), Shovot tumanida (**365** ta) hamda Urganch tumanida (**302** ta) yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-iyun davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik




So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2023- yil 1- iyul holatiga jami **14 335** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **4 977** ta yoki **34,7 %**, xizmatlar sohasida – **2 957** ta (**20,6 %**), sanoat sohasida – **3 104** ta (**21,6 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **2 519** ta (**17,6 %**) va qurilish sohasida – **778** tani (**5,4 %**) tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yilning yanvar-iyunida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **68,3%** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,6** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **90,7%** ni, yo'lovchi aylanmasida **96,2%** ni, yo'lovchi tashishda **94,5%** ni, qurilishda **80,9%** ni, yuk tashishda **96,0%** ni, savdoda **93,5%** ni tashkil etdi


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, %da





Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda



Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mlrd so'mda

Ulushi, %da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2023- yilning yanvar - iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm



2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1842,1** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**473,4** mlrd. so'm), Urganch (**295,4** mlrd. so'm), Xonqa (**199,4** mlrd. so'm), Tuproqqal'a (**174,2** mlrd. so'm) va Xiva (**116,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Yangibozor tumanida (**47,3** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2023- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **18,4 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva shahri (**63,6 %**), Urganch tumani (**60,5 %**), Xiva tumani (**51,9 %**), Xonqa tumani (**45,8 %**), Bog'ot tumani (**43,9 %**), Hazorasp tumani (**33,7 %**), Qo'shko'pir tumani (**31,0 %**), Gurlan tumani (**28,5 %**) va Urganch shahri (**27,9 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2230,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,9 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **101,1 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**473,3** mlrd. so'm), Urganch (**305,3** mlrd. so'm), Xiva (**264,4** mlrd. so'm), Xiva sh. (**168,0** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**134,1** mlrd. so'm), Xonqa (**134,0** mlrd. so'm) hamda Yangibozor (**131,6** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **1793,7** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **45,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyungana nisbatan **82,0 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**438,5** mlrd. so'm), Urganch (**203,5** mlrd. so'm), Yangibozor (**196,9** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**173,0** mlrd. so'm), Xonqa (**144,6** mlrd. so'm), Hazorasp (**109,3** mlrd. so'm) hamda Gurlan (**101,1** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



■ hajmi ■ foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, tmlrd. so‘mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **9 991,9** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **99,7 %** ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2022- yil yanvar-iyuniga nisbatan **106,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Qo‘shko‘pir (**1158,5** mlrd. so‘m), Urganch (**1134,0** mlrd. so‘m), Xonqa (**1020,4** mlrd. so‘m), Shovot (**994,4** mlrd. so‘m) Hazorasp (**981,7** mlrd. so‘m) hamda Bog‘ot (**970,1** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **4 827,1** mlrd so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **93,5 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyuniga nisbatan **104,2 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm




2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**1219,7** mlrd. so'm), Urganch (**590,0** mlrd. so'm), Hazorasp (**519,9** mlrd. so'm), Gurlan (**412,3** mlrd. so'm), Shovot (**358,8** mlrd. so'm) va Xonqa (**328,4** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3 521,7** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **59,9 %** ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **104,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**877,1** mlrd. so'm), Urganch (**305,7** mlrd. so'm), Xonqa (**295,9** mlrd. so'm), Bog'ot (**247,1** mlrd. so'm), Hazorasp (**246,4** mlrd. so'm), Gurlan (**233,7** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir (**230,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati yanvar-iyun

Hajmi, mln. AQSH dollar




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati yanvar-iyun


Hajmi, mln. AQSH dollar



Ulushi, %da




2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar)




■ hajmi, ming. AQSH dol. ■ foizi, %

2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **99,1** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **60,9 %** ini tashkil etdi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Qo'shko'pir va Xiva tumanida – **100,0 %**, Xiva sh.– **97,6 %**, Xiva sh. – **90,4 %**, Hazorasp tumanida – **88,1 %**, Gurlan tumanida – **81,0 %**, Urganch tumanida – **77,4 %** va Xonqa tumanida – **75,3 %**, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **6,9 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **106,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **36,4** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da


2023- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Hazorasp tumanida – **97,0** %, Urganch sh.– **88,6** %, Bog'ot tumanida – **88,4** %, Yangibozor tumanida – **76,4** %, Xiva tumanida – **69,5** %, Urganch tumanida – **58,3** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda



Yuk
aylanmasida



Yo'lovchi
tashishda



Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,0 %** ni tashkil etdi. 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.


2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **82,7 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,5 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,5 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil qildi.

2023- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1 296** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **384** tasi (**29,6 %**) iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **854** ta (**65,9 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **58** ta (**4,5 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **41,8 % (542 ta)**, xizmatlar sohasida – **28,4 % (367 ta)**, sanoatda – **14,4 % (187 ta)**, qurilishda – **6,7 % (87 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,7 % (113 ta)**ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**299** ta), Urganch tumanl (**166** ta), Xonqa tumani (**108** ta), Xiva shahri (**87** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **288** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **384** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **96** taga oshgan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **562** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **854** ta yoki **292** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyuniga kelib **58** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **35** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **623** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyuniga kelib **436** taga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **187** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **237** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **677** ta yoki **440** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni 2019- yilning yanvar-iyunida **13** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyunida kelib, bu ko'rsatkich **50** tani tashkil etib, **37** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyunida **33,0 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyuniga kelib **29,6 %**ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **3,4 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-iyunida **64,4 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **65,9 %** yoki **1,5 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi 2019- yilning yanvar-iyuniga **2,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyuniga kelib, bu ko'rsatkich **4,5 %** yoki **1,9 %** birlikka oshgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2017-2022- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyunida **71,3 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyuniga kelib esa **37,5 %** ga yetgan yoki 2019- yilning yanvar-iyuniga nisbatan **33,8 %** birlikka kamaygan.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning yanvar-iyunida **27,1 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-iyunida **58,2 %** yoki **31,1 %** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyunida **1,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyuniga bu ko'rsatkich **4,3 %** yoki **2,1** birlikka oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – **31,3 %**ni, sanoatda – **30,3 %**ni, qurilishda – **28,7 %**ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **69,0 %**ni, xizmatlar sohasida – **66,2 %**ni, savdoda – **64,6 %**ni, qurilishda – **64,4 %**ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,0 %**ni, qurilishda – **6,9 %**ni, savdoda – **5,1 %**ni tashkil etdi.

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, %da



2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda – **51,7** %ni, sanoatda – **47,1** %ni, xizmatlar sohasida – **43,9** %ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **56,6** %ni, savdoda – **56,1** %ni, xizmatlar sohasida – **55,0** %ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda – **2,2** %ni, sanoatda – **1,6** %ni, xizmatlar sohasida – **1,1** %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, %da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	37,3	57,3	5,1
Band bo'lganlar soni	24,3	73,1	2,6
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,5	67,9	2,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	27,3	67,2	5,5
Raqobat muhiti	38,7	60,0	1,3

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,2	55,0	1,8
Band bo'lganlar soni	27,1	71,5	1,4
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	34,8	63,3	1,9
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	29,8	64,1	6,1
Raqobat muhiti	40,0	58,8	1,2


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli